

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2025

1/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБЕЯ ҲӘМ СПОРТ

Utepbergenov A.K., Mamutov P.J. Sport shiniǵıwlariniń fiziologiyalıq klassifikasiyası	452
Joldasbayev P.M. Gimnastika menen shuǵillanatuǵın balalar hám óspirimler denesiniń rawajlaniwiniń jas qásiyetleri	458
Joldasbayev P.M. Grek-rim gúresinde texnikaliq hám taktik háreketler klassifikasiyasi, olardi qálidestiriw basqishlari	463
Saparbaev E. Háreketli oyınlar arqalı balalarda fizikalıq mádeniyatti tárbiyalawdýn tiykargı metodi hám quralı	469
Tleuov B. To‘pni uzatish texnikasiga o‘rgatish metodikasi	474
Tursunov A. Voleybol o‘yinining paydo bo‘lishi, ommalashishi va O‘zbekistonda rivojlanish tarixi	478
Nurmatov F.A. Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amalı tayyorgarligining pedagogik mehanizmlarini takomillashtirish	481
Nazarov Z.A. Bolalar sportida mashg‘ulotlarga o‘rgatishning dastlabki bosqich va uslublari	490
Абдулахатов А.Р. Олий таълим муассасалари talabalarinin milliyy kadrifatlardan ruxida tarbияlash iýüllari (Kuraş sporti misoliida)	494
Sultonov A.I. Belbog‘li kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlashga o‘rgatish usullari	499
Shermatov M.N. Futbol texnikasining o‘ziga xos xususiyatlari	504
Murodova R.M. Yengil atletika mashg‘ulotlарining jismoniy tarbiya tamoyillariga bog‘liqligi	511
Bebutov T.U. Kurashchilarда tayyorgarlik sikllarini takomillashtirish	517
Rajabov M.H. Kurash sport turining rivojlanish bosqichlari	521
Eshniyazov A.M. Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlari rivojlanishi tarixi	527
Abduraxmanov U.A. Kurashchilarining jismoniy va ruhiy tayyorgarligi jarayonlari	532
Kazakov Sh.N. Milliy va harakatlari o‘yinlarning pedagogik ahamiyati	537
Umarov Sh.A. Kurashchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish	541
Xudoyberganov J.S. Kurashchilarining texnik-taktik mahoratini oshirishda psixologik tayyorgarlik	546
Раджапов У.Р., Нигматуллаев Б.А., Рустамова М.Б. Психологические методы эффективного развитие игровой точности и стабильности юных теннисистов 10-12 лет Узбекистана	551



VOLEYBOL O'YININING PAYDO BO'LISHI, OMMALASHISHI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TARIXI

Tursunov A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: voleybol, jismoniy tarbiya, yon chiziq, yuz yoki en chiziq, o'rta chiziq, hujumdagি holatlar, himoyadagi holatlar.

Ключевые слова: волейбол, физкультура, боковая линия, лицевая или боковая линия, средняя линия, позиции в нападении, позиции в защите.

Key words: volleyball, physical education, side line, face or width line, middle line, attacking positions, defensive positions.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada voleybol o'yining qisqacha kelib chiqish va rivojlanish tarixi hamda uning nazariy asoslari haqida so'z yuritiladi. Bundan asosiy maqsad tinglovchilarga mavzuning nazariy asoslarini yoritishdan oldin uning tarixi haqida tushunchalarini eslatib o'tishdir. Shu bilan birga voleybol o'yinining bugungi xolati va yangi talablar haqida takliflar keltirib o'tiladi.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье рассказывается краткая история происхождения и развития игры в волейбол, а также ее теоретические основы. Основная цель этого состоит в том, чтобы напомнить аудитории о концепциях истории предмета, прежде чем они смогут осветить его теоретические основы. В то же время будут внесены предложения о сегодняшнем состоянии волейбольной игры и новых требованиях.

SUMMARY:

This article will talk about the brief history of the origin and development of the game of volleyball and its theoretical foundations. The main purpose of this is to remind the audience of concepts about the history of the subject before covering the theoretical foundations of it. At the same time, suggestions will be brought about today's state of the volleyball game and new requirements.

Voleybolning vatani AQSH. O'yin ixtirochisi Massachusetts shtatining Xoliok shahridagi kollejning jismoniy tarbiya o'qituvchisi Vilyam Morgan hisoblanadi. U ortiqcha tayyorgarlik va jihozlar uchun harajatlar talab qilmaydigan oddiy o'yinni yaratmoqchi edi.

1895 yilda V.Morgan yangi o'yin qoidalalarini ishlab chiqdi.

Yangi o'yin "Voleybol", ya'ni inglizchadan tarjima qilinganda, "uchuvchi to'p" deb nomlandi. Birinchi marotaba voleybol o'yini tomoshabinlarga 1896 yilning iyul oyida Springfield shahrida namoyish qilindi. 1897 yilda AQSH da voleybol o'yini qoidalari 10 tadan iborat bo'lgan.



1. O'yin maydonchasini belgilash (chizish).
2. O'yin jihozlari.
3. Maydoncha kattaligi 25 x 50 fut (7,6 m x 15,1 m).
4. To'r o'lchami 2 x 27 fut (0,61 m x 8,2 m), to'r balandligi 6,5 fut (195 sm).
5. To'p charm qoplamali rezina kamera aylanasi 25-27 dyuym (63,5 sm x 68,5 sm), og'irligi 340 g.
6. To'pni o'yinga kiritish. To'pni o'yinga kirituvchi o'yinni bir oyog'i bilan chiziqda turib to'pni ochiq kafti bilan urib o'yinga kiritishi lozim. Agar bunda xatoga yo'l qo'yilsa, ushbu harakat takrorlanadi.
7. Hisob. Raqib qabul qila olmagan har bir o'yinga kiritilgan to'p bir ochko keltiradi. Ochkolar faqatgina o'zi o'yinga kiritgan to'pni raqib qabul qila olmagandagina beriladi. Agar to'p o'yinga kiritilganda to'r ustidan oshib o'tmasdan o'z maydonchasida kelib ketsa, to'pni o'yinga kiritgan o'yinchi almashtiriladi.
8. Agar o'yin vaqtida to'p to'rga tegsa, bu xato hisoblanadi (to'p o'yinga kiritish bundan mustasno).
9. Agar to'p chiziqqa tushsa, bu xato hisoblanadi.
10. O'yinchilar soni cheklanmagan.

1922 yilda AQSH voleybol o'yinini VIII olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish taklifi bilan chiqdilar. O'yin asta-sekinlik bilan turli mamlakatlarda almashib borildi. Ayniqsa, Yevropada va boshqa qator mamlakatlarda voleybol bo'yicha rasmiy mamlakat birinchiliklari o'tkazila boshlandi (Chexoslovakiya, Polsha). 1928 yilda Moskvada o'tkazilgan birinchi Butunitifoq spartakiadasi dasturiga voleybol o'yini kiritildi. Voleybolning ommalashib borishi bilan bir vaqtida o'yin qoidalari ham takomillashib bordi. 1900 yili o'yin partiyasi 21 ochkogacha davom etgan. To'r balandligi 7 fut (215 sm), chiziq maydonining bir qismi hisoblangan. 1912 yili maydon o'lchami 35 x 60 fut (10,6 m x 18,2 m). O'yinga kiritilgan to'p boy berilgandan so'ng o'yinchilar almashtirilgan. To'r balandligi 7,5 fut (228 sm), kengligi 3 fut (91 sm). 1917 yili to'r balandligi 8 fut (245 sm) partiya 15 ochkogacha davom etgan. 1918 yili jamoalar tarkibida 6 nafar o'yinchi o'ynashi mumkin bo'lgan. 1921 yili o'rtalagi chiziq joriy qilindi. 1922 yil jamoalarning har bir o'yinchisi to'pga 3 marta zarba berishi mumkin bo'lgan. 1923 yili maydoncha o'lchami 30 x 60 fut (9,1 m x 18,2 m). 14 x14 hisobida birinchi bo'lib ikki ochko to'plagan jamoa g'olib deb topilgan.

O'zbekistonga voleybolning kirib kelishi va rivojlanishi. O'zbekistonda voleybol sport turi 1924 -1925 yillarda paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. O'zbekistonda voleybol o'yinining paydo bo'lishiga Toshkent shahrida jismoniy tarbiya o'qituvchisi Chernishev 1925 yilning oxiri 1926 yilning boshlarida birinchi marta Moskva shahridan voleybol to'pi, to'r va musobaqa qoidalari yozilgan kitobini olib kelgan va maktabda voleybol to'garagini tuzadi. Shu mакtabning



voleybol jamoasi 1927 yil 27 aprelda Metallist jamoasi bilan o'ynab, 3:0 ga yutadi. Shu vaqtdan boshlab ushbu o'yin ishchi klub va jismoniy tarbiya to'garaklarida o'ynala boshlandi. 1927 yili 1-Butun O'zbekiston spartakiadasi o'tkazildi va uning dasturiga voleybol o'yini ham kiritildi. Shunday qilib, O'zbekistonda voleybol o'yini 1927 yildan boshlab o'ynala boshlandi. Usha davrning sport faxriysi K. Lebedevning tarixiy izlanishlariga binoan 1924-25 yillarda zamonaviy voleybolni qonun qoidalari mavjud bo'lgan ya'ni maydon o'lchami 9x18 m, 6-kishidan o'yinchi o'ynaydi, ochkolar 15 gacha va x.z. xullas o'yin qoidalari o'xhash bo'lgan. 1927 yil 26 aprelida esa aynan Chernishev o'z maktabi voleybol to'garagi jamoasi bilan birinchi rasmiy musobaqa tashkil etib, unda bu jamoa yuqori mahoratni ko'rsatib musobaqa g'olibi bo'ladilar. Bu musobaqa voleybol sport turining ommalashishida va shakllanishida katta turtki bo'ldi. 1927 yilda birinchi marta Toshkent shahar birinchiligi o'tkaziladi va unda 9 ta voleybol jamoasi ishtirok etadi. Voleybolni keng ommalashishi aynan 1927 yildan boshlanadi. Shu yil Toshkent shahrida 6 ta voleybol maydoni paydo bo'ldi. 1928 yil Toshkentda musobaqa tashkil qilinadi va unda 10 ta erkaklar va 4 ta ayollar jamoasi ishtirok etadi. 1930 yilda "Dinamo" ko'ngilli sport jamiyatida voleybol klubi tuzildi. Ilk jamoaning murabbiysi B.A. Varontsov O'zbekiston voleybolining rivojlanishiga salmoqli hissasini qo'shadi. 1933 yilda II O'zbekiston spartakiadasi o'tkazildi va bunda voleybol ham o'z o'rmini mustaxkam egalladi. 1934 yil O'zbek voleyboli uchun muhim burilish bo'ldi, chunki ilk bor O'zbek voleybolchilari Moskvada mamlakat birinchiligidagi ishtirok etdi. Aynan shu yili voleybol O'rta-Osiyo va Qozog'iston spartakiadasi dasturidan o'rin oldi. Shuni ham a'lovida ta'kidlab o'tish lozimki O'zbek voleybolini ilk bor ravnaq topishida A. Saakov, G.L.Kechishev, V.X. Shnurov, A.A. Bogachenko, B.A. Vorontsov kabi murabbiylarning xizmatlari alovida ahamiyatga ega. O'zbekiston voleybolining rivojlanishida G.Xudyakov, G.Bagirov R.Xusainov, Yu.Simonov, V.Kucharov, V.Ananich, S.Myachin, E.Sklyarova, L.Raxmonulova, Yu.Xolnazarova, L.Korchagina, L.Ishmaeva, V.Galushko, V.Duyunova, L.Pavlova, O.Belova O.Dubyaga o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar. Hozirgi kunda Vatanimizning erkak va ayollar milliy terma jamoalari jahon miqyosidagi sport musobaqalarida muntazam qatnashib keladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi O'RQ-394-sonli qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagи PF-5368-sон "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-sон "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
4. Pulatov A.A. Voleybol. // JTI I kurs talabalariga mo'ljallangan ma'ruzalar to'plami. T.: 2004. - 71 b.
5. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2007.